



## JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot*  
**2023- yil yanvar**

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasid an.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **7526** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **107** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **7419** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **443,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **88,6** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **37,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **133,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **405,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **73,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **143,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **86,2** %) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>443,3</b>	<b>88,6</b>	<b>37,5</b>	<b>133,7</b>	<b>405,8</b>	<b>85,9</b>
Jizzax sh	135,2	90,9	22,6	146,9	112,6	84,5
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	5,8	48,1	0,2	70,4	5,6	47,7
Baxmal	38,6	65,4	0,3	80,9	38,3	65,3
G'allaorol	42,8	97,3	2,1	110,5	40,7	96,7
Sh Rashidov	37,0	86,9	0,8	4,3 m	36,2	85,3
Do'stlik	21,6	82,5	0,2	25,5	21,4	84,0
Zomin	68,5	104,8	10,6	137,7	57,9	100,4
Zarbdor	26,7	77,9	0,2	89,5	26,5	77,8
Mirzacho'l	13,7	109,8	0,1	80,7	13,6	110,1
Zafarobod	10,9	89,3	0,1	66,2	10,8	89,7
Paxtakor	24,8	93,9	0,1	18,4	24,7	96,3
Forish	12,5	109,9	0,1	67,5	12,4	110,6
Yangiobod	5,4	86,8	0,07	64,2	5,33	87,3

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Jizzax shaxri (**90,9** %), Zomin (**104,8** %), Mirzacho'l (**109,8** %) va Forish (**104,9** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **405,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan **85,9** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,5** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **33,7** % ga o'sdi va **37,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyligining **8,5** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Paxtakor (**99,4 %**), Zarbdor (**99,4 %**) va Do'stlik (**99,3 %**) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (**16,7 %**), Zomin (**15,4 %**) va G'allaorol (**4,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	<b>303,7</b>	<b>86,6</b>
Jizzax sh	714,4	88,7
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	121,5	47,3
Baxmal	233,8	63,9
G'allaorol	236,4	95,1
Sh Rashidov	158,4	84,6
Do'stlik	316,1	81,0
Zomin	395,2	102,2
Zarbdor	291,3	76,0
Mirzacho'l	254,1	108,0
Zafarobod	208,9	87,6
Paxtakor	315,8	91,8
Forish	129,8	108,2
Yangiobod	183,6	85,6

2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **303,7** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **86,6 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**714,4** ming. so'm), Zomin (**395,2** ming. so'm) va Do'stlik (**316,1** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyati bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **143,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **86,2 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **57,5** mlrd. so'mni (77,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **85,6** mlrd so'mni tashkil etdi (**93,9 %**).

### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)**



### **Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)**




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>143,1</b>	<b>86,2</b>	<b>57,5</b>	<b>76,9</b>	<b>85,6</b>	<b>93,9</b>
Jizzax sh	24,9	97,0	24,9	97,0	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,1	2,2	0,1	13,5	0,01	0,3
Baxmal	13,9	56,6	4,9	35,4	9,0	83,6
G'allaorol	19,9	92,3	4,1	71,6	15,9	99,6
Sh Rashidov	11,3	134,2	-	-	11,3	134,2
Do'stlik	9,9	82,3	2,4	59,8	7,4	93,9
Zomin	17,5	81,4	6,6	75,6	10,9	85,3
Zarbdor	13,2	68,5	3,5	41,9	9,8	88,4
Mirzacho'l	8,3	121,0	2,5	193,0	5,8	104,4
Zafarobod	0,0	0,0	-	-	-	-
Paxtakor	15,2	119,9	7,9	136,4	7,3	106,1
Forish	7,0	130,6	0,5	151,3	6,5	129,1
Yangiobod	1,7	69,7	0,01	4,3	1,6	76,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **57,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**21,8** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari</b> <b>21,8</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>8,2</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar) <b>5,1</b>
	<b>Tovuq go‘shti</b> <b>2,8</b>
	<b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar) <b>2,9</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...) <b>1,8</b>
	<b>Tuxum</b> <b>4,4</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>3,7</b>
	<b>Ziravorlar</b> <b>4,8</b>
	<b>Tuzlamalar</b> <b>1,9</b>
	<b>Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari</b> (manzarali va qishloq xo‘jaligi) <b>0,09</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b> <b>0,0</b>



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlariда parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **85,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи **59,2** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **24,5** mlrd. so‘mni, otlar – **1,5** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	28,4
1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	14,1
1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	16,6
Qo‘ylar	21,0
Otlar	1,5
Echkilar	3,5
Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,2
Tovuqlar	0,1
Quyonlar	0,0
Qushlar	0,0

**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI  
SAVDO AYLANMASI**



2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **707,0** mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **88,5 %** ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>707,0</b>	<b>88,5</b>	<b>220,9</b>	<b>130,0</b>	<b>486,1</b>	<b>77,2</b>
Jizzax sh	12,9	72,6	0,1	8,7	12,8	75,7
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	21,9	94,4	1,9	-	19,9	86,0
Baxmal	33,6	80,6	5,6	132,3	28,0	74,7
G‘allaorol	16,6	88,9	0,0	-	16,6	88,9
Sh Rashidov	23,5	73,4	1,8	140,2	21,7	70,6
Do‘slik	19,4	78,3	2,7	73,4	16,7	79,2
Zomin	20,0	86,0	2,4	39,1 m.	17,6	76,0
Zarbdor	44,1	85,0	17,5	86,9	26,6	83,8
Mirzacho‘l	21,1	79,3	0,1	12,5	21,0	81,0
Zafarobod	6,5	80,4	0,0	-	6,5	80,4
Paxtakor	68,1	89,1	15,3	112,0	52,7	84,1
Forish	34,6	88,9	2,7	175,9	31,9	85,4
Yangiobod	13,8	75,5	0,2	-	13,7	74,6



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **245,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **66,6 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **70,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **40,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **175,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **89,6 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	245,5	100,0
Jizzax sh	42,1	17,1
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	0,0	-
Baxmal	130,0	53,0
G'allaorol	5,7	2,3
Sh Rashidov	47,8	19,5
Do'stlik	0,1	-
Zomin	17,2	7,1
Zarbdor	0,04	-
Mirzacho'l	0,02	-
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,1	-
Forish	2,4	1,0
Yangiobod	0,04	-

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**130,0** mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumani (**47,8** mlrd. so'm) va Jizzax shaxri (**42,1** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **105,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **95,9 %** ni tashkil etdi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **77,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **88,8 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **73,7 %** ni tashkil qildi.



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **105,7** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **95,9 %** ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **27,7** mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati **123,7 %**), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **77,9** mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati **88,8 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>105,7</b>	<b>95,9</b>	<b>27,7</b>	<b>123,7</b>	<b>77,9</b>	<b>88,8</b>
Jizzax sh	50,0	72,0	6,5	29,0	43,5	92,2
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,2	82,7	-	-	0,2	82,9
Baxmal	20,0	41,4 m	19,9	67,5 m	0,1	22,3
Gʼallaorol	2,9	86,9	-	-	2,9	86,8
Sh Rashidov	6,1	104,7	-	-	6,1	104,6
Doʼstlik	6,8	102,4	1,3	9 m	5,5	83,4
Zomin	11,1	82,5	-	-	11,0	82,5
Zarbdor	1,5	83,0	-	-	1,5	83,1
Mirzachoʻl	0,3	84,8	-	-	0,3	84,2
Zafarobod	0,8	82,9	-	-	0,8	82,6
Paxtakor	1,1	81,9	-	-	1,1	82,8
Forish	4,4	77,5	-	-	4,4	77,9
Yangiobod	0,5	83,5	-	-	0,5	82,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
**Тел. 72-221-51-26**